

## **O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2022 yil IV- choragidagi faoliyati to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot**

1. 2022 yil oktabr oyida Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning biznes jarayonlarida elektron hujjat aylanishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (ID-69994) loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan bitta yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Jamoatchilik kengashi a‘zolari qaror loyihasiga o‘zlarining o‘zgartirish va qo‘shimchalarini taklif qilishdi, uni shu yerdan yuklab olishingiz mumkin.

2. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2022yil noyabr oyida Soliq kodeksiga 2023yildan kuchga kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihasini muhokama qilish bo‘yicha bitta yig‘ilishi o‘tkazildi.

Jamoatchilik kengashining a‘zolari mazkur o‘zgartirishlar loyihasiga o‘z fikrlari va qo‘shimchalarini taklif qildilar. Xususan, ular SKning 14 -moddasidagi taklif qilingan o‘zgartirishlarga qarshi chiqdilar. Ularga muvofiq, soliq organlari huquqni suiste‘mol qilishi, sud qarorisiz soxta (shubhali) bitimlarni tuzish holatlarini belgilash huquqiga ega bo‘lar edi.

3. 2022yil dekabr oyida Jamoatchilik kengashining ikkita yig‘ilishi o‘tkazildi, unda Davlat soliq qo‘mitasi Markaziy apparati xodimlarining quyidagi takliflari muhokama qilindi:

- majburiy inventarizatsiya o‘tkazish. Kengash a‘zolari majburiy inventarizatsiya o‘tkazmasdan turib, qo‘yilgan muammolarni hal qilishning muqobil usullarini taklif qildilar. Kengash fikrini bu yerdan yuklab olish mumkin;

- “Soliq to‘lovchilarning ishonchliligi” indeksini joriy etish to‘g‘risida. Kengash a‘zolari mavjud “xavf-xatarlarni tahlil qilish” vositalari va soliq qonunchiligini buzish xavfi minimal bo‘lgan soliq to‘lovchilarni aniqlash imkoniyatini hisobga olgan holda ushbu indeksning maqsadga muvofiqligiga shubha bildirdilar.

Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati xodimlari ishtirokida “2023-2027-yillarda soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal etish tizimini rivojlantirish” Konsetsiyasi loyihasi ishlab chiqildi va muhokama qilindi.

Konsepsiyaning maqsadi - sudgacha hal qilish tizimini rivojlantirish orqali soliq to‘lovchilarning soliq organlariga bo‘lgan ishonchini oshirish hamda soliq to‘lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishining yuqori standartlarini ta‘minlashdir. Konsepsiya loyihasini shu yerdan yuklab olishingiz mumkin.

Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a‘zolari bilan o‘tkazilgan qo‘shma yig‘ilishda Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik

kengashi a'zolari ham ishtirok etdi. Yig'ilishda Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan Soliq kodeksiga taklif etilgan o'zgartirishlar muhokama qilindi. Mutaxassislarning tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan takliflarining salmoqli qismi qabul qilindi.